



TEODOR DRAYZERNING “BAXTIQARO KERRI” ROMANIDA JAMIYAT VA SHAXS FOJIASI

Anvarjonova Mexriniso Azamjon qizi, talaba

Ilmiy rahbar: M.T.Axmedova

ADCHTI-“Tarjima va nazariyasi” yo‘nalishi

Annotatsiya: Maqolada buyuk amerika yozuvchisi Teodor Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” asarining badiiy tahlili va yozuvchining naturalistik oqimiga mansub bo‘lgan o‘z uslubi va XX asr Amerika ijtimoiy hayotining qarama-qarshiliklari to‘g‘risida gap ketadi

Kalit so‘zlar: realizm, naturalizm, inson psixologiyasi, “lady”, obraz, modernizm, tanqidiy realizm.

Teodor Drayzer — Amerika adabiyotida realizm va naturalizm yo‘nalishining yirik vakillaridan biridir. Bu davr XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Mana shu davr amerika adabiyotining naturalizm va tanqidiy realizm yo‘nalishi davri bo‘lib unda adabiyotning eski yo‘nalishidan to‘lqinlangan ijtimoiy tanqid, moliyaviy qudrat va sanoatlashtirish va amerikacha orzu kontekstidagi insonning psixologiyasiga e‘tibor qaratilgan.

Uning “Baxtiqaro Kerri” (“Sister Carrie”) romani XX asr boshidagi Amerika jamiyatining ijtimoiy muammolarini, inson taqdiriga moddiy muhitning ta‘sirini chuqur yoritgan muhim asarlardan sanaladi. Asar muallifning ilk romani bo‘lishiga qaramay, hayotiyligi va falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi.

Asarning qisqacha mazmuni

Roman qishloqdan Chikago shahriga kelgan yosh qiz — Karolina Miiber (Kerri) hayoti haqida hikoya qiladi. U yaxshi yashash, chiroyli hayot va qulay sharoit orzusida shaharga keladi. Lekin, uni shaharda og‘ir mehnat, arzimay pul evaziga erta tongdan kun botgunga qadar ishlashga majbur qiladigan hayot kutayotgandi. Og‘ir mehnat va kambag‘allik uni boyroq erkaklar — Drue va Gerstvud bilan munosabatga



kirishga majbur qiladi. Vaqt o'tishi bilan Kerri sahna san'atida muvaffaqiyat qozonadi, Gerstvod esa asta-sekin tanazzulga yuz tutadi.

Asarning asosiy g'oyasi va tahlili

Drayzer asar orqali inson hayoti va taqdiri ko'pincha jamiyatdagi iqtisodiy kuchlar bilan belgilanayotganini ko'rsatadi. Kerri obrazi — jamiyat sharoitiga moslashgan, moddiy manfaat ta'sirida yashayotgan shaxs timsolidir. U axloqiy jihatdan ayblanmaydi, aksincha, muallif uni muhit qurboni sifatida tasvirlaydi.

Shunday bo'lsada Kerri erishgan yutuqlaridan ko'ngli to'lmaydi, uning muvaffaqiyat ortidan quvishi xuddi hayotda o'zining asl baxtini topa olmagan shaxsning jazavaga tushib, boylik ortidan quvishiga o'xshaydi. Aslini olganda ham shunday: Kerri qancha ko'p muvaffaqiyatga erishsa ham asl baxt nimaligini his qila olmaydi. Endi uni tark etgan homiylari qiziqitirmas, o'zining holati qanchalar o'sib borishiga qaramasdan kiborlar jamiyati uni rosmena "lady"- deb qabul qilmas edi. Uning ijtimoiy past tabaqadan kelib chiqishi har soniyada eslatilib turilar edi.

Gerstvod obrazi esa jamiyatdagi o'zgarishlarga moslasha olmagan insonning fojiasini aks ettiradi. Uning boylikdan qashshoqlikka tushishi ijtimoiy barqarorlikning naqadar beqaror ekanini ko'rsatadi. Asarda tilga olinganidek: "Oyoq tolib, umidlar puchga chiqqanida, yurak esa ezilib, azobda qolganida bilginki, senga zerikish ham, mamnuniyat ham nasib bo'lmaydi. Sen derazang yonidagi tebratma stulda orzuga berilib va siqilib o'tiraverasan! Deraza yonidagi tebratma stulingda o'zing hech qachon nash'asini surolmaydigan baxtingni orzu qilaverasan". Hayot shunday unda tebratma stulda boshqalarning muvaffaqiyatini tomosha qilib, ularning qachondir tanazzulga uchrashini kutganlar emas, balki harakat qilganlar yutadi. Asar ham ushbu so'zlarimizni tasdiqlaydi chunki asardagi tebratma stulda o'tirgan Gertsvud va uning ayanchli taqdiri, va unga qarama -qarshi o'laroq harakat qilgan Kerri va uning mashhur aktrisaga aylanishidir. Asardagi yana bir shaxs borki biz uni bemalol kapalakka o'xshatishimiz mumkin. Bu kommivoyajer deya aytilgan Druedir. Bu shaxsni kapalakka o'xshatishimizning asosiy sababi u hayot lazzatini chiroyli liboslar kiyish yaxshi restoranlarda ovqatlanish, chiroyli ayollar va



mansabdor shaxslar bilan muloqotda bo'lishda deb o'ylaydi. U hayotdan hech narsa olmaydi, bermaydi va hech narsa olib ketolmaydi. Shuningdek, asarda moddiy muvaffaqiyat va haqiqiy baxt o'rtasidagi ziddiyat asosiy muammo sifatida ilgari suriladi.

Badiiy xususiyatlari

Roman naturalistik uslubda yozilgan bo'lib, voqealar hayotiy va ishonarli tasvirlangan. Drayzer shahar hayotini, mehnat bozori, ijtimoiy tabaqalanish va sanoat jamiyatini keng tasvirlaydi. Qahramonlarning ichki kechinmalari psixologik tahlil orqali ochib berilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, "Baxtiqaro Kerri" romani inson baxti va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beruvchi muhim asardir. Teodor Drayzer ushbu asar orqali moddiy muvaffaqiyat har doim ham insonni baxtli qilmasligini, haqiqiy baxt esa ma'naviy qoniqish bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Asar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. **The Oxford Companion to American Literature** (Oxford)
2. **The Oxford Handbook of American Literary History** (Oxford)
3. Richard Gray — **A History of American Literature**
4. Soliyeva, S., & Ahmedova, M. (2024). HARMONY BETWEEN BORDERS: LEADING INTERCULTURAL DIALOGUES. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(21), 416-419